

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2024, № 2 (4)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES

Scientific journal

ТОШКЕНТ-2024

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик

Ўзбекистон Миллий университети

Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Нарбеков Абдикамил Вафаевич
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Замонов Акбар Тургинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор
Тошкент халқаро Кимё университети

Кандахаров Анваржон Хасанович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти

Нормуродов Дильмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Усаров Умид Абдумавлянович
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети

Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Галиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Адилов Аброр Анварович СОВЕТ ХОКИМИЯТИНИНГ ИЛК ДАВРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА АМАЛГА ОШИРГАН ДИНИЙ СИЁСАТИДАГИ ВАКФ МАСАЛАСИ	4
2. Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI O'RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI	20
3. Бахранов Шерзад Таштурсунович., Сирлиев Эркин Назарович ИЗ ИСТОРИИ ТАМОЖЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РУССКО-СРЕДНЕАЗИАТСКОЙ ТОРГОВЛЕ	34
4. Замонов Акбар Тургинович ШАЙБОНИЙ АБДУЛЛАХОН ШАХСИЯТИ ВА УНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	45
5. Qodirova Ra'no Mamirjonovna O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINI O'QITILISHI	60
6. Maxmudova Muazzamxon Sultonmaxmudovna TEMURIYLAR SALTANATIDA SUG'ORISH TIZIMI MASALALARINI ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET DAVRI MANBALARIDA YORITILISHI	70
7. Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич XV – XVI АСРНИНГ БОШЛАРИГА ОИД “ЯНГИ САНГАНАК” ХАЗИНАСИДАГИ САМАРҚАНД ТАНГАЛАРИ ХУСУСИДА	79
8. Рахманова Одинахон Равшанбековна САММАРСКИЙ ПЕРИОД ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЕ ХАЛИФОВ АЛЬ-МУТАСИМА И АЛЬ- ВАСИКА	93
9. Сиддиков Равшан Бердимуратович ОЛИЙ ТАЪЛИМНИНГ ГЛОБАЛЛАШУВИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	101
10. Примов Мухиддин Омонович ЎЗБЕКИСТОНДА КАРТОГРАФИЯ МУТАХАССИСЛИКЛАРИ ОЧИЛИШИ ВА КАРТОГРАФ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР	118
11. Hakimova Shoiri Sag'dullayevna O'ZBEKISTON ELEKTROENERGETIKA SANOATIGA XORIJY SARMOYALARNING JALB ETILISHI	135
12. Hakimova Saida Baxtiyorovna O'TOSHKENT BEKLIGI T. BURNASHEV VA M.POSPELOV NIGOHIDA	150
13. Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi HAZRATI IMOM MAJMUASIGA TARIXIY SAYYOHAT	156
14. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ИЖТИМОЙ ҲАЁТИГА СОВЕТ МАФКУРАГА МОСЛАШТИРИЛГАН ЯНГИЧА УРФ ОДАТЛАРНИНГ КИРИБ КЕЛИШИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР	162

Maxmudova M. S.

Katta o'qituvchi, (PhD)

Farg'ona davlat universiteti

maxmudovamuazzam@gmail.com

**TEMURIYLAR SALTANATIDA SUG'ORISH TIZIMI
MASALALARINI Rossiya imperiyasi va sovet davri
MANBALARIDA YORITILISHI
ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi va sovet davri tadqiqotchilari tomonidan Amir Temur va temuriylar saltanatida irrigatsiya tizimi masalalarining o'rganilishi haqida ma'lumot beriladi.

Tayanch so'zlar: Sharqshunos olimlar, irrigatsiya tizimi, Marv xarobalari, Mirzacho'l, Zarafshon okrugi.

Махмудова М. С.

Старший преподаватель, PhD

Ферганский государственный университет

maxmudovamuazzam@gmail.com

**ОСВЕЩЕНИЕ В ИСТОЧНИКАХ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ И
СОВЕТСКОГО ПЕРИОДА ИРИГАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ В
ГОСУДАРСТВЕ ТЕМУРИДОВ
АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлены сведения об изучении вопросов ирригационной системы в период правления Амира Темура и Тимуридов исследователями Российской империи и советского времени.

Ключевые слова: Ученые-востоковеды, ирригационная система, руины Марва, Мирзачоль, Заравшанский район.

Makhmudova M. S.
Senior lecture, PhD
Fergana state university
maxmudovamuazzam@gmail.com

**COVERAGE IN THE SOURCES OF THE RUSSIAN EMPIRE AND
THE SOVIET PERIOD IRRIGATION SYSTEM IN THE TEMURID
STATE
ABSTRACT**

This article presents information about the study of issues of the irrigation system during the reign of Amir Temur and the Timurids by researchers of the Russian Empire and Soviet times.

Key words: Oriental scientists, irrigation system, Marv ruins, Mirzachol, Zarafshan district.

KIRISH

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida sharqshunos olimlar Amir Temur va temuriylar saltanatida yuz bergan siyosiy jarayonlarni o'rganishga harakat qilganlar. Ushbu davrning atoqli sharqshunos olimlaridan V.L.Vyatkin va V.V.Bartold asarlarida Amir Temur va temuriylar saltanatining irrigatsiya tizimiga doir bir qator masalalar tadqiq qilingan[1].

Samarqandlik muftiy Abu Tohirhoja 1844-1848-yillarda fors tilida Samarqand tarixiga bag'ishlab "Samariya" asarini yozdi. Sadriddin Ayniy bergan ma'lumotga ko'ra, ushbu asar 1921-yilda Abdulmo'min Sattoriy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, "Inqilob" jurnalida nashr etildi. Abdulmo'min Sattoriy vafotidan so'ng 1925-yilda Sadriddin Ayniy asarning forsha nusxasi va tarjimasini solishtirib, tuzatishlar kiritib, nashrga tayyorlaydi, lekin asar nashr qilinmay qolib ketadi. Oradan 45 yil o'tgandan so'ng akademik Bo'riboy Ahmedov tomonidan qayta nashrga tayyorlanib, yana nashr etilmasdan qolib ketadi. Ikki marta nashr qilinmasdan qolgan asar va nihoyat akademik B.Ahmedov va A.Juvonmardiyev tahriri ostida 1991-yilda chop etildi[2]. Asar 11 ta kichik boblardan iborat bo'lib, 1-7-boblarida Samarqand shahriga ta'rif berilgan. Asarda Samarqandni suv bilan ta'minlovchi daryo va ariqlar haqida ma'lumotlar berilgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Rossiya imperatorlik arxeologiya hay'ati 1890-yilda forsshunos va arxeolog V.A.Jukovskiyni Kaspiyorti o'lkasiga fors madaniyatining ta'sirini o'rganish uchun safarga yuboradi. V.A.Jukovskiy Marv xarobalarini arxeologik va yozma manbalar asosida tadqiq qiladi. Amaliy safar natijasida "Kaspiyorti o'lkasining qadimgi yodgorliklari. Marv xarobalari" nomli asar chop etiladi[3]. Asarda Marv shahri, shaharni suv bilan ta'minlovchi Sultonband to'g'onining 1219-yilda mo'g'ullar tomonidan vayron etilishi, 1409-yilda Shohrux Mirzo farmoni bilan Marv shahri va Sultonband to'g'onining qayta tiklanishi manbalar asosida yoritilgan.

Rossiya imperiyasi tomonidan "Kavkaz" gazetasining 1887-yil, 10-sonida "Mirzacho'ldagi gidrotexnik ishlar"[4] va "Turkiston to'plami"ning 1908-yil, 478-tomida "Mirzacho'ldagi qadimiy ariqlar" nomli maqolalar nashr qilindi[5]. Ushbu maqolalarda Amir Temur farmoniga ko'ra Sirdaryodan qazilgan O'rimboy arig'i tarixi haqida so'z boradi.

Rus tarixchisi va geografi, general L.Sobolev "Zarafshon okrugi haqidagi geografik va statistik ma'lumotlar bilan aholi punktlari ro'yxatiga ilova" nomli monografiyasini nashr qildirgan[6]. L.Sobolev monografiyasining uchinchi bobi "Sug'orish bilan bog'liq holda okrugning gidrografiya"ga bag'ishlangan bo'lib, unda Zarafshon okrugini suv bilan ta'minlovchi ariqlar haqida ma'lumot berilgan va ariqlarning ro'yxati keltirilgan. Ushbu ro'yxatda Mirzo Ulug'bek tomonidan qazilgan Mirzaariq haqida ma'lumotlar berilgan.

Temuriylar davri irrigatsiya tizimi haqida ma'lumot beruvchi dastlabki tadqiqot arxeolog va sharqshunos olim V.L.Vyatkin tomonidan 1902-yilda "Samarqand viloyati ma'lumotnomasi"da "Samarqand viloyatining tarixiy geografiyasiga oid materiallar" nomi bilan nashr qilingan[7]. V.L.Vyatkin temuriylar davridan to Rossiya imperiyasi bosqinigacha bo'lgan davrdagi vaqf hujjatlari asosida birinchi marta Samarqand viloyatining tarixiy geografiyasini o'rgangan. Tadqiqotda Samarqand viloyatining temuriylar davridagi irrigatsiya tizimi yoritilib, Samarqand

viloyati tarkibiga kiruvchi tuman va qishloqlarni suv bilan ta'minlovchi kanal va ariqlar haqida ma'lumot berilgan.

Arxeolog N.F.Sitnyakovskiyning "Zarafshon vodiysining Buxoro qismi haqida eslatmalar" nomli asari Buxoroning sug'orish tizimiga bag'ishlangan bo'lib, unda ariqlar va aholi punktlari ro'yxati ilova qilingan[8]. Ariqlar ro'yxatiga Mirzo Ulug'bek tomonidan qazilgan Mirzaariq ham kiritilgan. Muallif ariqlarning zamonaviy nomlarini Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida keltirilgan nomlar bilan solishtiradi.

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkistonning sug'orilish tarixiga bag'ishlangan dastlabki va yagona asar akademik Vasiliy Vladimirovich Bartold tomonidan yozilgan. Asar 1914-yilda "Turkistonning sug'orilish tarixi" nomi bilan nashr etilgan[9]. V.V.Bartold O'rta Osiyoning (qadimdan boshlab to XIX asrning so'ngigacha bo'lgan davr) sug'orilish tarixini fors va arab tillarida yozilgan manbalar asosida o'rganib, ularni umumlashtiradi. Asarda O'rta Osiyoning asosiy suv manbalari hisoblangan daryo va kanallar haqida batafsil ma'lumot berilgan. V.V.Bartoldning Zarafshon daryosi va Zarafshondan qazilgan kanallar tarixi bo'yicha bergan ma'lumotlari temuriylar davri sug'orish tizimini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega.

V.V.Bartold Hofizi Abru "Geografiyasi"ning Samarqandga tegishli qismini tarjima qilib, 1897-yilda "Hofizi Abru va uning hikoyasi" nomi bilan nashr qildirdi. Maqolada Samarqandni suv bilan ta'minlovchi ariqlar ro'yxati keltirilgan[10].

Sovet davrida D.D.Bukinich, B.A.Latinin, Yahyo G'ulomov, S.P.Tolstov, B.V.Andrianov kabi olimlar O'rta Osiyoning sug'orilish tarixini arxeologik tadqiqotlar va yozma manbalar asosida o'rgangan. Ular tomonidan yaratilgan asarlar O'rta Osiyoning qadimda va o'rta asrlarda sug'orilish tarixini to'ldirishga xizmat qildi. Afsuski, yuqoridagi ismlari zikr etilgan olimlar asarlarida Amir Temur va temuriylar davri sug'orilish tarixiga oid ma'lumotlar uchramaydi.

Sovet davrida Amir Temurga nisbatan salbiy qarashlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, akademik I.Mo'minov juda katta jasorat bilan Amir Temur hayoti va

faoliyatini yorituvchi ma'ruzasini O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Prezidiumi qoshidagi Kengashda 1968-yilda o'qib eshittirgan. Uning matni risola sifatida o'zbek va rus tillarida nashr qilingan[11]. Mustaqillik yillarida risola ikkinchi marta nashrdan chiqdi[12]. I.Mo'minov risolada Amir Temurning bunyodkorlik faoliyatiga yuqori baho berib, qisman kanallar qazilishiga to'xtalib o'tgan.

Arxeolog S.K.Kabanov va laborant S.S.Kashevarov 1954-yilning mart-may oylarida O'zbekiston Respublikasi FA Tarix va arxeologiya instituti tomonidan Darg'om kanalidan boshlanuvchi Eski Anhor kanali yo'nalishidagi arxeologik yodgorliklarni o'rganish uchun ekspeditsiyaga yuborilgan[13]. Ular arxeologik kuzatuvlari orqali Eski Anhor kanalining qurilgan davrini aniqlashga harakat qildi. Arxeolog kuzatishlari natijasida kanalning qadimdan mavjudligini, Amir Temur hukmronligi davrida kanal yanada kengaytirilganligini aytib o'tgan.

Akademik Yahyo G'ulomovning "Xorazmning sug'orilish tarixi (Qadimgi zamonlardan hozirgacha)" deb nomlangan monografiyasi 1959-yilda nashrdan chiqdi[14]. Yahyo G'ulomov birinchilardan bo'lib Amudaryo etaklarida sun'iy sug'orishning vujudga kelishi va uning taraqqiy etish tarixini o'rgangan. Monografiyaning xronologik chegarasi juda katta davrni egallagan bo'lib, asarni yoritishda arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar va etnografik ma'lumotlardan keng foydalanilgan. Yahyo G'ulomov tadqiqot mobaynida Amir Temur va temuriylar davrida Xorazmning sug'orilish tarixi bo'yicha hech qanday ma'lumotga duch kelmaganligini qayd etgan[15:184].

Tojikistonlik olim N.Mahmudov temuriylar davrida qishloq xo'jaligi va agrar munosabatlarga bag'ishlangan "XIV – XV asrlarda O'rta Osiyoda qishloq xo'jaligi va agrar munosabatlar" nomli to'rt bobdan iborat monografiyasini nashr qildirgan[16]. Uning birinchi bobi temuriylar davrida sug'orish tizimi va qishloq xo'jaligiga bag'ishlangan.

M.Baratovanning ilmiy tadqiqotida Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlari haqida so'z boradi[17]. Muallif Alisher Navoiyning sun'iy sug'orishga qaratgan e'tibori haqida yozib, Husayn Boyqaro davrida korizlar qurilishining ahamiyatiga to'xtalib o'tgan.

Sharqshunos va arxeolog, akademik A.R.Muhammadjonovning O'zbekiston irrigatsiyasi tarixini yoritishga qo'shgan hissasi beqiyosdir. A.Muhammadjonov butun faoliyati davomida O'zbekistonda sug'orma dehqonchilik, irrigatsiya tizimining rivojlanishi, gidrotexnik inshootlarning qurilish tarixini tadqiq qildi. A.Muhammadjonovning 1972-yilda "Quyí Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan to XX asr boshlarigacha)" asari nashr qilingan[18]. Mazkur asar quyí Zarafshon vodiysida qadim zamonlardan to XX asrgacha bo'lgan sug'orish va sug'orish texnikasining rivojlanishiga bag'ishlangan. Arxeologik tadqiqotlar va yozma manbalarga asoslanib yozilgan ushbu asar hozirgi kungacha O'zbekiston irrigatsiyasi tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Asarda qisman Amir Temur va temuriylar davri tilga olingan.

Samarqandning 2500 yilligi munosabati bilan akademik I.Mo'minov boshchiligida yaratilgan ikki tomlik "Samarqand tarixi" kitobi 1971-yilda nashrdan chiqqan[19]. Asarda Samarqandning qadimdan boshlab to Rossiya imperiyasi tugatilgan davrigacha bo'lgan tarixi yoritilgan. Asarning "Shaharning suv bilan ta'minlanishi" deb nomlangan paragrafida temuriylar davrida Samarqand shahri va uning atrofidagi hududlarning sug'orish tizimi haqida ma'lumot berilgan.

Akademik G.Pugachenkovaning "XV asrda Markaziy Osiyo arxitekturasí" deb nomlangan asarida temuriylar davrida O'rta Osiyo, Eron va Afg'onistonda bunyod etilgan me'morchilik inshootlari haqida ma'lumotlar berilgan[20]. Asarda qisman temuriylar davrida irrigatsiya tizimiga to'xtalib o'tilgan hamda Turkmanistonning Anau shahrida temuriylar davrida barpo qilingan sardoba haqida ma'lumot berilgan.

Arxeolog M.Masson va uning rafiqasi akademik G.Pugachenkova hammuallifligida yozilgan "Shahrisabz Temur va Ulug'bek davrida" nomli ikki qismli tadqiqot J.Rogers tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinib, Eron jurnalida nashr qilingan[21]. Tadqiqotda Shahrisabzning Amir Temur va Mirzo Ulug'bek hukmronligi davridagi tarixi bayon qilingan hamda Qashqadaryoning sug'orish kanallaridan biri bo'lgan Manglik kanali haqida ma'lumot berilgan.

Arxeolog O'.Alimov "O'rta asrlarda Movarounnahrda bog'chilik xo'jaligi tarixi" deb nomlangan monografiyasini Amir Temur tomonidan bunyod etilgan bog'-saroylar haqida yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlar va arxeologik tadqiqotlarga tayanib yoritgan[22]. Monografiyada temuriylar davrida qurilgan bog'larning suv ta'minoti yoritilgan.

XULOSA

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Turkistonni har tomonlama o'rganishga e'tibor qaratilgan. Bu davrda rus arxeologi V.L.Vyatkin Samarqandni sug'orish tarmoqlarini o'rganib, kanal va ariqlarning qaysi davrdan buyon mavjudligiga qiziqib, uni aniqlashga harakat qilgan. Rus sharqshunos olimi V.V.Bartold tomonidan Amir Temur va temuriylar davri tarixiga doir bir qancha yirik tadqiqotlar yaratilgan. Turkistonning sug'orilishiga bag'ishlangan tadqiqotida temuriylar davridan mavjud bo'lgan sug'orish tarmoqlariga kengroq to'xtalib o'tgan. Sovet mafkurasining ta'sirida yaratilgan adabiyotlarda mavzuga oid ma'lumotlar yetarli emasligi ko'zga tashlanadi.

IQTIBOSLAR / СНОСКИ / REFERENCES

1. Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята // Справочная книжка Самаркандской области. Выпуск VII. – Самарканд: Товарищества, 1902. – 192 с.; Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. Сочинение, Т. III. – Москва: Наука, 1965. – 714 с.
2. Абу Тоҳирхожа. Самария. – Тошкент: Камалак, 1991. – 336 б.
3. Жуковский В. Древности Закаспийского края. Развалины старого Мерва. – Санкт-Петербург: [Тип. Гл. упр. уделов](#), 1894. – 222 с.
4. Гидротехнические работы в Голодной степи // Кавказ. № 10. – Тифлиси: Типография Канцелярии Главноначальствующего Граж. част. на Кавказе, 1887. – С. 1.
5. Древние арыки в Голодной степи // Туркестанский сборник. Статьи и заметки из русских и иностранных газет. Т. 478. – Ташкент, 1908. – 212 с.

6. Соболев Л. Географические и статистические сведения о Зеравшанском округе с приложением списка населенных мест округа. – Санкт-Петербург: Тип. Имп. Акад. наук, 1874. – 571 с.

7. Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаята // Справочная книжка Самаркандской области. Выпуск VII. – Самарканд: Товарищества, 1902. – 192 с.

8. Ситняковский Н. Заметки о Бухарской части долины Зеравшана // Известия Туркестанского отдела Императорского Русского географического общества. Т. I. 1899. Вып. II. – Ташкент: Типолитография Бр. Порцевых, 1900. – 314 с.

9. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. Сочинение, Т. III. – Москва: Наука, 1965. – 714 с.

10. Бартольд В.В. Хафизии Аbru и его сочинения. Сочинение, Т.VIII. – Москва: Наука, 1973. – 666 с.

11. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиёда тутган ўрни ва роли. – Тошкент: Фан, 1968. – 52 б.

12. Мўминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиёда тутган ўрни ва роли. – Тошкент: Фан, 1993. – 56 б.

13. Кабанов С.К. Археологические наблюдения на строительстве Иски-Ангарского канала // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск 1. – Ташкент: Изд. Ак. наук Узбекской ССР, 1959. – 258 с.

14. Гуломов Я. Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959. – 324.

15. Гуломов Я. Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (Қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 184.

16. Махмудов Н. Земледелие и аграрные отношения в Средней Азии в XIV – XV вв. – Душанбе: Дониш, 1966. – 130 с.

17. Баратова М. Алишер Навоийнинг иқтисодий қарашлари ҳақида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент: Фан, 1969. – 74 б.

18. Муҳаммаджонов А. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи (Қадимги даврдан то XX аср бошларигача). – Тошкент: Фан, 1972. – 376 б.

19. Самарқанд тарихи. 2 томлик. Масъул муҳаррир И.М. Мўминов. Таҳрир хайъати В.А. Абдуллаев ва бошқ. 1 том. – Тошкент: Фан, 1971. – 484 б.

20. Пугаченкова Г. Зодчество Центральной Азии. XV век. – Ташкент: Гафур Гулям, 1976. – 116 с.

21. Masson M, Pugachenkova G., and Rogers J. Shakhri Syabz pri Timure i Ulug Beke (“Shahr-i Sabz from Tīmūr to Ūlūgh Beg”): I // Iran, [Vol. 16](#). – London: Taylor & Francis, Ltd, 1978. – 110 p.

22. Алимов Ў. Ўрта асрларда Мовароуннаҳрда боғчилик хўжалиги тарихи. – Тошкент: Фан, 1984. – 135 б.